
Endilikda nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga qabul qilganlarga subsidiya beriladi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.04.2022 yildagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligiga ko'maklashishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 203-sonli qarori tasdiqlandi.

Mazkur qaror bilan kimlarga va qancha miqdorda subsidiya beriladi?

Mazkur qarorning 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "Nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga qabul qilgan ish beruvchilarga Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan subsidiya berish tartibi to'g'risida NIZOM"ning 2-bandiga ko'ra, nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga qabul qilgan ish beruvchilarga har bir xodim uchun 6 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 1,5 baravari (hozirgi kunda 450.000 so'm) miqdorida subsidiya beriladi. Bunda shuni unutmasligimiz kerakki, mazkur subsidiya byudjet tashkilotlari, davlat korxonalari, ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslarga tatbiq etilmaydi.

Ish beruvchilar nogironligi bo'lgan shaxsni ishga qabul qilgandan keyin subsidiya olish uchun qaerga va qanday tartida murojaat qilishi lozim?

Ish beruvchilar nogironligi bo'lgan shaxsni ishga qabul qilgandan keyin subsidiya olish uchun tegishli mahalliy mehnat organiga (tuman (shahar) Aholi bandligiga ko'maklashish markazi (ABKM) yozma ravishda yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali murojaat qiladi. Murojaatda ishga qabul qilingan nogironligi bo'lgan shaxsning familyasi, ismi, otasining ismi, nogironlik guruhi, ish beruvchining subsidiya to'lab berilishi lozim bo'lgan hisobvarag'i ko'rsatilishi, shuningdek, murojaatga nogironligi bo'lgan shaxsning ishga qabul qilinganligi to'g'risidagi buyruq nusxasi ilova qilinishi shart.

Subsidiya ajratishni rasmiylashtirish tartibi qanday?

Mahalliy mehnat organi ish beruvchi tomonidan subsidiya olishni so'rab taqdim etilgan hujjatlarni 3 ish kuni ichida o'rganib chiqadi. Bunda nogironligi bo'lgan shaxs bilan tuzilgan mehnat shartnomasi «Yagona milliy mehnat tizimi» idoralararo dasturiy-apparat kompleksidan ro'yxatdan o'tkazilganligi va ushbu shaxs «Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza» elektron axborot tizimida ro'yxatda turganligi subsidiya berish uchun asos hisoblanadi.

Ish beruvchi tomonidan hujjatlar to'liq taqdim etilgan, barcha zarur ma'lumotlar ko'rsatilgan va nogironligi bo'lgan shaxs bilan tuzilgan mehnat shartnomasi «Yagona milliy mehnat tizimi» idoralararo dasturiy-apparat kompleksida ro'yxatdan o'tkazilganligi tasdiqlangan taqdirda, mahalliy mehnat organi ish beruvchiga nogironligi bo'lgan shaxsni ishga qabul qilganligi uchun subsidiya berish to'g'risidagi buyruqni rasmiylashtiradi. Buyruqda subsidiya miqdori va uni ajratish muddati ko'rsatilishi lozim.

Qayday holatlar subsidiya ajratishni rad etuvchi holatlar hisoblanadi?

Yuqorida sanab o'tilgan hujjatlar, ya'ni tegishli mehnat organiga qilingan murojaatda ishga qabul qilingan nogironligi bo'lgan shaxsning familyasi, ismi, otasining ismi, nogironlik guruhi, ish beruvchining subsidiya to'lab berilishi lozim bo'lgan hisobvarag'i ko'rsatilishi, shuningdek, murojaatga nogironligi bo'lgan shaxsning ishga¹ qabul qilinganligi to'g'risidagi buyruq nusxasi to'liq taqdim etilmagan yoki nogironligi bo'lgan shaxs bilan tuzilgan mehnat shartnomasi «Yagona milliy mehnat tizimi» idoralararo

dasturiy-apparat kompleksida ro'yxatdan o'tkazilmaganligi yoxud «Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza» elektron axborot tizimida ro'yxatda turmaganligi aniqlansa, mahalliy mehnat organi subsidiya ajratishni rad etadi va murojaatchiga rad etishning sabablari asoslangan xabarnomani yuboradi.

Subsidiya berish qanday asoslarga ko'ra to'xtatilishi mumkin?

Mahalliy mehnat organi xodimlari, shu jumladan, Davlat mehnat inspeksiyasi mansabdor shaxslari joyiga chiqqan holda, ishga qabul qilingan nogironligi bo'lgan shaxslarning haqiqatdan ishlayotganligini monitoring qilish va ular bilan suhbatlashib, ish o'rinlaridagi sharoitlar bilan tanishishga haqli.

Mahalliy mehnat organi xodimlari tomonidan o'tkazilgan monitoring natijalariga ko'ra, ishga qabul qilingan nogironligi bo'lgan shaxslarning ish joyida sababsiz bo'lmaganligi yoki sababsiz ishga muntazam ravishda kelmayotganligi yoxud subsidiyani yolg'on ma'lumotlar asosida olganligi aniqlansa, subsidiya berish to'xtatiladi va to'langan mablag'larni belgilangan tartibda qaytarish choralari ko'riladi.

Muxammadjon Ulmasov

O'zbekiston tuman adliya bo'limi Inson huquqlarini himoya qilish va

huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish bo'lnimasi yetakchi maslahatchisi

2022-09-13 15:19:19